

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| I.I.Rustamova | |
| Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi | 770 |
| G.H.Oxunova | |
| Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida) | 773 |
| G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva | |
| Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri | 778 |
| G.Muhammadjonova | |
| Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari | 782 |
| Sh.D.Maxmidjonov | |
| Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida) | 787 |
| M.M.Xamidov | |
| O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli | 791 |
| O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova | |
| Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri | 795 |
| X.A.Abdulxamidova | |
| Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida | 799 |
| J.B.Sayidolimov | |
| "Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi | 803 |
| G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva | |
| Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida) | 808 |
| I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev | |
| "Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini | 812 |
| S.F.Komilova | |
| Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini | 817 |
| O.A.Ahmadjonova | |
| Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi | 820 |
| A.A.Abduraxmonov | |
| O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi | 824 |
| X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva | |
| "Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm | 828 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| S.N.Fazildinova | |
| "Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi | 831 |
| N.K.Ergasheva | |
| Goals and objectives of the training practice | 835 |
| O.A.Axmedova | |
| Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari | 838 |
| Sh.B.Karimova | |
| O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi | 841 |
| A.U.Akhmedova | |
| Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages | 844 |
| A.U.Akhmedova | |
| The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages | 850 |
| D.Ganieva, F.Khamidov | |
| The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages | 855 |
| Ш.Аскарова | |
| Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка | 859 |
| S.Kh.Azimova | |
| The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics | 863 |
| E.B.Yagyaeva | |
| Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi | 867 |
| E.B.Yagyaeva | |
| Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar | 870 |



UO'K: 82-1:82.0:82.09:821.512.133

O'ZBEK LIRIKASIDA NURNING POETIK FUNKSIYASI

ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ СВЕТА В УЗБЕКСКОЙ ЛИРИКЕ

THE POETIC FUNCTION OF LIGHT IN UZBEK LYRICS

Abduraxmonov Abiljon Abdusamatovich 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada nurning o'zbek lirikasida qo'llanishining genezis va takomil bugungi davr lirikasida namoyon bo'lish shakllari va ifoda funksiyalari tadqiq etiladi. Nurning adabiy asarda qo'llanishi bo'yicha adabiyotshunoslikdagi munosabatlar keltiriladi. Shuningdek uning mumtoz adabiyodagi o'rni va ahamiyati belgilab beriladi. Yangi o'zbek adabiyotida, asosan mustaqilligimizdan keyingi yangi davr adabiyotida, xususan lirikasida nurga murojaatning turli shakl va ko'rinishlari ko'proq uchraydi. Nur syujetning etakchi unsurlaridan biri bo'lgan motiv sifatida badiiy asar mazmunini namoyon qilishdagi xizmati yaqqollashganligi aytiladi. Nur qo'llanishining 1) ramziy; 2) obrazlashtiruvchi (xarakterlovchi); 3) emotiv funksiyalari Halima Ahmedova she'rlari misolida keltiriladi. Nurning bu funksiyalari yaxlitdan ko'ra uyg'ulashgan – bir necha funksiyali ko'rinishda ko'proq uchrashi aniqlanadi. Bu o'rinda nurning tashqi olamdagi obrazlashtirilgan qiyofasi tasvirlanishi, poetik g'oya ifodasidagi asosiy yo'naltiruvchi vazifasi yana bir bor dalillanadi. Shuningdek nur motivining nurning turli ko'rinish va manbalari vositasida aks etishi holatlari ham uchrashi yoritib beriladi. Ruhoniy hamda dunyoviy munosabat uyg'unlashgan yangi davr adabiyotida nurga munosabat o'ziga xos joziba va emotivlik kasb etganligi, bunda nur badiiy g'oya ifodasida motiv asosida namoyon bo'lib, obrazni xarakterlovchi, emotiv va hattoki obraz ko'rinishidagi funksiyalarni bajarib kelganligi, bularning barchasi o'zbek lirikasida nurning ifodasi o'zining genezis va takomiliga ega ekanligi bilan bog'liqligi dalillanadi.

Аннотация

В статье рассматриваются генезис и совершенство использования света в узбекской лирике, формы его проявления и функции выразительности в современной лирике. Представлены связи в литературоведении по использованию света в литературном произведении. Также будут определены его место и значение в классической литературе. В новой узбекской литературе, главным образом в литературе нового периода после обретения независимости, особенно в лирике, более распространены различные формы и проявления обращения к свету. Говорится, что свет, как один из ведущих элементов сюжета, является мотивом, и его служба в выражении содержания художественного произведения совершенствуется. 1) символическое использование света; 2) описательный (характеристический); 3) эмотивные функции приведены на примере стихов Халимы Ахмедовой. Определено, что эти функции света чаще встречаются в многофункциональной форме, чем в целом. В этом месте ещё раз доказывается описание образа света во внешнем мире, главной направляющей функции в выражении поэтической идеи. Также поясняются случаи, когда световой мотив отражается посредством различных форм и источников света. Тем, что в литературе новой эпохи, где сочетаются духовные и светские отношения, своё очарование и эмотивно приобрело отношение к свету, в котором свет появляется на основе мотива выражения художественной идеи, и выполнило функции характеристики образа, эмотивной и даже в форме образа доказано, что все это связано с тем, что выражение света в узбекской лирике имеет свой генезис и совершенство.

Abstract

The article discusses the genesis and perfection of the use of light in Uzbek lyrics, the forms of its manifestation and the functions of expressiveness in modern lyrics. The connections in literary criticism on the use of light in a literary work are presented. Its place and significance in classical literature will also be determined. In new Uzbek literature, mainly in the literature of the new period after independence, especially in lyric poetry, various forms and manifestations of turning to light are more common. It is said that light, as one of the leading elements of the plot, is a motive, and its service in expressing the content of a work of art is being improved. 1) symbolic use of light; 2) descriptive (characteristic); 3) emotive functions are shown using the example of the poems of Halima Akhmedova. These light functions have been determined to be more common in multifunctional form than in general. In this place, the description of the image of light in the external world, the main guiding function in the expression of a poetic idea, is once again proven. Cases where the light motif is reflected through various forms and light sources are also explained. The fact that in the literature of the new era, where spiritual and secular relations are combined, the attitude towards light has acquired its charm and emotive, in which light appears on the basis of the motive of expressing an artistic idea, and has fulfilled

ADABIYOTSHUNOSLIK

the functions of characterizing the image, emotive and even in the form of an image, it has been proven that all this is due to the fact that the expression of light in Uzbek lyrics has its own genesis and perfection.

Kalit soʻzlar: *nur, badiiy ijod, badiiy asar, ramziy gʻoya, sheʼriyat, ijodkor konsepsiyasi, shakl va koʻrinish, motiv, mazmun, funksiya, ramziy, obrazli, emotiv, lirik qahramon, makon, olam, genezis, takomil.*

Ключевые слова: *свет, художественное творчество, художественное произведение, символическая идея, поэзия, творческий замысел, форма и явление, мотив, содержание, функция, символический, образный, эмотивный, лирический характер, пространство, вселенная, генезис, совершенствование.*

Key words: *light, artistic creativity, work of art, symbolic idea, poetry, creative concept, form and phenomenon, motive, content, function, symbolic, figurative, emotive, lyrical character, space, universe, genesis, improvement.*

KIRISH

Hozirgi zamon dunyo adabiyotshunosligida nurning olamni anglashda inson psixologiyasini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatidagi ahamiyatiga eʼtibor qaratilmoqda. Bu esa nurning badiiy asardagi funksiyasi, ijodiy konseptni yuzaga chiqarishdagi, gʻoyaviy-estetik xususiyatlarini ifodalashdagi ahamiyati bilan bogʻliq nazariy masalalarini chuqur tahlil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Oʻzbek adabiyoti ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan oʻziga xos taraqqiyot va izlanishlar bosqichini bosib oʻtdi. Nur vositasida ijodkorlarning ijtimoiy-maʼnaviy muammolarga munosabatlarini ifodalashlarining nazariy asoslarini chuqur va mufassal yoritilishi alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qurʼoni karim "Nur" surasi 35-oyatida "nur" soʻzi yaratguvchining ifoda va ramzi sifatida keltiriladi: *نور الله المنان ات الأور ز هن* "Olooh osmonlar va yerning nuridir". [1.254] "Nur"ning lugʻaviy maʼnosi yorugʻlik boʻlib, qorongʻilikning ziddidir. Qorongʻida hech narsa koʻrinmagani va kishi bilib harakat qilolmagani, ammo yorugʻda nima bor-yoʻgʻligi maʼlum boʻlib, kishi xavfsiz toʻgʻri harakat qilolgani uchun "nur" soʻzi hidoyat va uning vositalariga, masalan aql va iymonga nisbatan ham qoʻllaniladi." [2.29.]

Tadqiqotchi E.I.Mostepanenko esa nurni badiiy ijodning muhim impulsi ekanligini bildirganicha badiiy asarda ahamiyatini eʼtirof etadi: "oʻzining tabiiy xususiyati va insonlarga ahamiyati tufayli nur tabiiy va toʻlaqonli chuqur tashuvchisi va shuning bilan birga badiiy ijod manbai boʻlib qolmoqda" [3. 80.]

Oʻzbek adabiyotshunosi N.Rahimjonov A.Oripov sheʼriyati xususidagi "Nur–hurlik timsoli" nomli maqolasida "Aslida nur obrazini real hayot magʻziga toʻliq jonli, moddiy borliqdir... nur obrazini shaxs va jamiyat psixologiyasidagi yorugʻlik va qorongʻulik bilan bogʻlab qoʻyish u qadar toʻgʻri boʻlmas. Uning uchun – maʼnaviy va zohiriy – voqelik nurlari oʻrtasidagi murakkab va nozik aloqadorlik koʻproq muhimdir. Nur – ular oʻrtasidagi hadlarni bir chetga surib, hayot va qalbini bir mehvarda mujassamlashtiradi, shuʼlalandiradi" [4. 48.], degan fikrlar bildirib oʻtilgan. Olim nurning lirik asardagi ahamiyatini toʻgʻri eʼtirof etsa-da, biroq sabab, mohiyatini toʻliq yoritmay, uning badiiy matnda sheʼriy sanʼatlar yaratishdagi ishtirokiga munosabati bilan cheklanadi.

Yana bir adabiyotshunos A.Ulugʻov Halima Ahmedova sheʼriyatini tahlil qilish jarayonida "Aslida ham hamma nur va zulmat oraligʻida yashaydi. Lekin bu haqiqatni juda kam kishi payqaydi" [5.178] deya taʼrif beradi. Ammo fikrning asosi, mohiyati yoritilmay qorongʻu qolgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Nur mumtoz adabiyotimizda ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqaruvchi muhim omil, asosiy vosita sifatidagi genezisiga ega.

"Nur asar sarlavhasiga olib chiqilishi orqali ham nur badiiy asar gʻoyasining asosiy ochqichi ekanligiga ishora qilinganligi maʼlum boʻladi. Alisher Navoiyning "Matlai un anvor" ("Nurlarning boshlanishi"), Mashrabning "Mabdai nur" asarlari bunga yorqin misoldir. Hattoki, Sharq mumtoz adabiyotining mashhur dargʻalar oʻz taxalluslarini Qosim Anvor kabi nur bilan bogʻlab olishgan. Alisher Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiyini "Hazrati Nuran" deb ataydi. Bu yerda nur bilan bogʻlangan juda katta gʻoyaviy maqsad, falsafa mujassamligi bor." [Taʼkid f.f.d., professor H.A.Joʻrayevnikni – A.A.]

Yangi oʻzbek adabiyotida, asosan mustaqilligimizdan keyingi yangi davr adabiyotida, xususan lirikasida nurga murojaatning turli shakl va koʻrinishlari koʻproq uchraydi. Nur syujetning etakchi unsurlaridan biri boʻlgan motiv sifatida badiiy asar mazmunini namoyon qilishdagi xizmati

yaqqollashdi. Davr she'riyatining yorqin vakillaridan biri Halima Ahmedova ijodi bevosita shunday xususiyati bilan e'tiborli.

Nur qo'llanishini shoira ijodida quyidagi funksiyalarda kuzatamiz:

1) ramziy; 2) obrazlashtiruvchi (xarakterlovchi); 3) emotiv.

Nurning bu funksiyalari yaxlitdan ko'ra uyg'ulashgan – bir necha funksiyali ko'rinishda ko'proq uchraydi.

Tong chertganda qishning billur darichasini,

Nur qushlari kiprigimni silab uyg'otdi. [6.33.]

(H.Ahmedova "Tinchlik")

Ayon bo'lib turibdiki, sutkaning kunduz payti bilan bog'liq jarayonlarning lirik manzarasi qalamga olingan. Bir so'z bilan aytganda nurning yer yuziga – lirik qahramon turgan makon tomoniga tushishi bilan bog'liq. Aslida tong ham nur tushishining boshlanish davri va u "qishning billur darichasini" nur bilan "chertadi". Dastlab "chertish"ni yuzaga keltirgan nur keyingi satrdayoq obrazda qiyofalanadi – *nur qushlari*. Aynan shu olamni ko'rish organi bo'lgan ko'zning kipriklarini silab, lirik qahramonni uyg'otishidek lirik manzara chizgilanadi.

Keyingi satrlarda lirik g'oya silsilasi nur motivi bo'ylab yanada yuksala borib, obrazlashgan holda namoyon bo'ladi.

Ilk sevgisin yuragida pinhona tutgan

Sen o'g'limning ko'zlarida o'ynayotgan nur. [6. 33.]

(H.Ahmedova "Tinchlik")

Ayonlashadiki, nur ishq otashi shakliga kiradi.

Yana: *Shabnamning ko'ziga cho'miladi nur. ... [6. 56.]*

(H.Ahmedova "O'zimga maktub")

Bu o'rinda nurning tashqi olamdagi obrazlashtirilgan qiyofasi tasvirlanadi. Poetik g'oya ifodasidagi asosiy yo'naltiruvchi vazifasi yana bir bor dalillanadi. "Nur konsepti ijodkorning individual yondashuvdagi badiiy g'oyasini yoritib beradi. Bunda u she'riy kontekstda bevosita ishtirok etgan nur obraziga asoslanadi va nur obraziga turdosh va yondosh bo'lgan tushunchalarni atrofiga birlashtirib, poetik g'oyaning yaxlit, teranroq ifodalanishiga xizmat qildiradi." [7. 26.]

Nurning xarakterlovchi – obrazlashtiruvchi funksiyasini esa quyidagi satrlarda kuzatish mumkin:

Jon muhrini bosay yorug' kun tilxatiga. [6. 33.]

(H.Ahmedova "Tinchlik")

Kun aslida yorug'lik tufayli sodir bo'ladigan jarayon. Ya'ni yer yuziga quyosh nurlarining tushish jarayoni. Ijodkor tomonidan kunni qanday ekanligini xarakterlash orqali uning ko'chma ma'nosiga ham urg'u beradi. Yorug' kun – qorong'i emas. Lirik qahramon o'z jonini kafilligi evaziga kunning tol'e baxsh etishiga bergan "tilxati"ga "muhr bosish" manzarasi tasvirlanadi.

Xuddi yuqoridagi kabi nurning funksiyasini quyidagi satrlarda ham kuzatamiz:

Kelajakning beshigini tebratuvchisan,

Umid bog'in ko'kartirgan ham nurli bog'bon. [6. 33.]

(H.Ahmedova "Tinchlik")

Endi bu o'rinda g'ayrioddiy o'xshatish qo'llanadi – nurli bog'bon. Mavhum ot bo'lmish umidning bog'ini bog'bonning nurlisigina ko'kartira olishiga go'yoki syureal olam manzarasidek tasvirlab beradi. Umid kabi fazilatlarini faqatgina nur yarata olishi ta'kidlanadi.

Shuningdek nur motivining nurning turli ko'rinish va manbalari vositasida aks etishi holatlari ham uchraydi. Nurning osmondagi quyosh, oy, yulduz, yerdagi olov, kattalik ko'rinishi shu'la, yog'du kabi manba va shakllarida namoyon bo'ladi.

Quyosh taronasin buzmasi g'amlar. [6.79.]

(H.Ahmedova "Qobiqlar")

Osmon zangor tortib borar,

Qish o'rtasida

Zarbof to'nni kiyar quyosh qadim elchidek. [6.33.]

(H.Ahmedova "Tinchlik")

Ko'rinadiki, quyoshdan kelayotgan nur tarona shaklida, qish pallasidagi nurlarining turlicha bo'lishi esa zarbof to'rga o'xshatiladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Nurning kichraygan shakli esa lirik qahramonning psixologik drammatizmini yoritib berishga xizmat qiladi.

Men ketaman, ammo dunyo ortidan emas,

Qonim ichra yongan gulxan shu'lasi tomon. [6. 81.]

(H.Ahmedova "...YOding olis.")

XULOSA

Demak, o'zbek lirikasida nurning ifodasi o'z genezis va takomiliga ega. Har bir tarixiy davrning ijtimoiy-ma'naviy munosabatlaridan kelib chiqqan holda nurga munosabat ko'rinishlari o'zgarib, shakllanib kelgan. Ruhoniy hamda dunyoviy munosabat uyg'unlashgan yangi davr adabiyotida nurga munosabat o'ziga xos joziba va emotivlik kasb etgan. Bunda nur badiiy g'oya ifodasida motiv asosida namoyon bo'lib, obrazni xarakterlovchi, emotiv va hattoki obraz ko'rinishidagi funksiyalarini bajarib kelganligi ma'lum bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda. Bularning barchasi o'zbek lirikasida nurning ifodasi o'zining genezis va takomiliga ega ekanligini dalillaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Куръон карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992.
2. Муҳаммадий Н.. Нурнома ва уларнинг янги талқини –Т.: Уз.Р. ФА, Фан, 2003.
3. Мостепаненко Е.И. Свет в природе как источник художественного творчества. Художественное творчество. Вопросы комплексного изучения. Человек - Природа - Искусство. - Л.: Наука, 1986.
4. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Т.: Фан, 2007
5. Улугов А. Хур гулсан, ҳаёт. / Шарқ юлдузи, 2010, №2.
6. Ҳалима Аҳмедова. Яшил. –Т.: Ўзбекистон, 2016.
7. Абдурахмонов А. Нур ва сурур. – Фарғона, 2022.